

SHASHMAQOMNING VUJUDGA KELISHI TARIXI

Ibrohimov Azizbek Ismonjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbek milliy san’ati ustuni bo‘lish maqom, o‘n ikki maqom, shashmaqom san’atlarining vujudga kelishi tarixi haqda haqida yozma manbalar asosida yoritildi.

Kalit so‘zlar: maqom, shashmaqon, milliy, o‘n ikki, sho‘ba.

O‘n ikki maqom tizimi XII – XVII asrlarda O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari kasbiy musiqa amaliyotida qo‘llangan nazariy va amaliy tizimdir. Ustoz musiqachi va olimlarning bastakorlik va xalq ijodiyoti namunalarining muayyan ta’limot (tasavvuf) asosida ma’naviy va badiiy yaxlit holga keltirish ustida olib borgan izlanishalari natijasida yuzaga kelgan. Dastlab Safiuddin al Urmaviy va Qutbiddin She’roziylarning musiqaga doir asarlarida ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan va keyingi asrlarda Xoja Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobidin Husayniy, Najmuddin Kavkabi, Darvishali Changiy va boshqalar tomonidan ijodiy davom ettirilgan. Ushbu ilmiy an’anaga ko‘ra, tizimning tarkibi muayyan darajali pardalar uyushmalari – 12 maqom, 6 ovoza, 24 sho‘ba, 3 rang va 24 ta murakkabot kabi guruhlarni o‘z ichiga olgan. Noiniy, Darvishali Changiy va boshqalar mualliflar ko‘rsatishicha, 12 maqom guruhi payg‘ambarlar (Odam Ato, Nuh, Ya’qub, Ayyub, Dovud, Sulaymon, Muso, Muhammad Alayhi Salom) dan qolgan ma’naviy meros asosida aniqlab olingan hisoblanadi. 12 maqomning serjihat (zohiriyl botiniy) kabi ma’nolar bilan yo‘g‘rilgan umumiyl va xususiy nomlari bo‘lgan. Umumiy nomlari “doira”, “halqa”, “jam” kabi atalib, ularning mukammallik darajasiga va ayni paytda cheksiz samoda mavjud barcha harakatdagi olamlarning o‘zaro bog‘likdagi va birligi g‘oyasiga ishora etgan. Jumladan, musiqiy risolalardan O‘n ikki maqom. Pardalari turli (katta, kichik) hajmdagi doiralar shaklida ustma ust aks ettirilgan bo‘lib, bir (ilk) doiradan keying doiralarga izchil (navbatma navbat) o‘tilganda ularning boshlang‘ich (tayanch) pardalari muntazam ravishda bir bosqichga yuksalib borgan. Natijada yuksalib boruvchi aylanma harakat yuzaga kelgan va u eng kichik doira bilan nihoyasiga yetgan. O‘n ikki maqomning xususiy nomlari zanjirida ham tariqat maqomlariga bog‘liq ma’naviy yuksalish g‘oyasi o‘ziga xos tarzda imkonini topgan. Bunda 1 “Ushshoq” maqomi – yo‘l (tariqat)ga talabgor davrasini, 2 “Navo” – ularning ishq kuyini (navo

chekishni), 3 “Busalik” (Abu Salik – Ahd otasiga ishora) – oshiqning tariqat yo‘liga kirishga ahd bog‘lanishini anglatadi. 7 maqom nomlarida oshiqlarning ‘yo‘l’ sayrlari va manzillari ulug‘ haj safariga qiyos etilgan. Shunga ko‘ra, 4 ‘Rost’ – to‘g‘ri (tariqat) yo‘lini, 5 “Husayniy” – pirumurshid (yo‘l boshchi) ni, 6 “Hijoz” – Makkai Mukaramma va madinai Munavvara shaharlari joylashgan sarhad yo‘lning asosiy maqsad timsolini, 7 “Rohaviy” – yo‘l (suluk)ni, 8 “Zangula (tuy bo‘yniga ilinadigan qo‘ng‘iroq) – yo‘ldagi karvon timsolini, 9 “Iroq” va 10 “Isfahon” – maqsadga yaqin kelishlik ma’nolarida keladi. Zero haj (Hijoz) yo‘lida Iroq mamlakatining bepayon cho‘llaridan o‘tilgan, “Isfahon” esa ana shu maqsadga yaqin kelishlikni ramz etadi. So‘ngi ikki maqom – 11 “Zirafkand” 9to‘sak, yotish payti) va 12 “Buzruk” (ulug‘, buyuk) nomlarida safarbarlik harakati poyoniga yetganligi anglashiladi. Zirafkandning yana bir qo‘sishimcha nomi – “Ko‘chak” (kichik) bo‘lib, u o‘zidan so‘ng kelgan “Buzruk” 9katta bilan o‘zaro nisbatga sofiylarning kichik (inson) va katta olamning o‘zaro birligi, uyg‘unligi haqidagi sofiyona qarashlarga ishora etilgan. O‘n ikki maqom nomlari tasavvuf adabiyotida ham asosan ulug‘ yo‘l safarini ifodalash uchun qo‘llanib kelgingan: gar Sifohonda Navo topmasang, ey yori Buzruk, Qilg‘asan azmi iroq, aylab ohangi Hijoz.

SHASHMAQOM TARIXI

Shashmaqom – tojikchadan olingan bo‘lib “Olti” maqom degan ma’noni anglatadi. Markaziy Osiyo(asosan, o‘zbek va tojik) xalqlari musiqiy merosida markaziy o‘rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o‘zaro uzviy bog‘langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shart sharoitlarda musiqiy folkyor hamda kasbiy musiqa yo‘nalishlarida orttirilgan ko‘p asrlik ilmiy ijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an‘analarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodni san’atining qomusiy mahsulidir. O‘rta asr Yaqin va O‘rta xalqlari musiqa ilmida maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan kuy va ashulalarni ifodalaydi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlanadi. 13 asrda esa Safiuddin al Urmaviy ularni o‘n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. 17 asrdan so‘ng O‘n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan 18 asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiy ijrochilik faoliyatida shashmaqom uzil kesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro shashmaqomi nomlarida ham yuritildi. O‘zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko‘rinishdagi)

maqomlar, sunray, dutor, yo'llari va boshqalar shahsmaqom ta'sirida rivojlandi. O'tgan zamon bastakorlaridan keng qo'llanilgan amal, kor, naqsh, peshrav, savt, tarona, qavl kabi janrlarning noyob namunalari shashmaqom tarkibida bizgacha yetib keldi. Shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib jami 250 dan ortiq har xil shakladagi kuy va ashula namulalaridan iborat. Shu kunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo'llarning qo'plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovoz, tanbur, sunray, dutor va boshqalar maqom yo'llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalr yaratadilar. Maqomlar sazanda va xonandalar tomonidan yakka tarzda, shuningdek, jo'rnavozlik va jo'rnavozlikda ijro etib kelingan. Xususan, Buxoro amirlari saroyida eng so'nggi davrda jo'rnavozlik asosan, tanbur, doira (doirachilar xonanda ham bo'lган) afg'on rubobi, sato yoki qo'biz, imkonga ko'ra bo'laman cholg'ularidan iborat bo'lган. Maqom ijrochiligida tanbur yetakchi soz hisoblanadi. Chunki u torlarini maqom pardalariga moslab sozlashda va maqom yo'llarini mukammal yangratishda bir muncha qulayliklarga ega. Doira esa sozanda va xonandalarning shashmaqom qismlarini belgilangan usul negizida ijro etishlari uchun zarur vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir maqomning bosh tovushqatori o'ziga xos va nisbatan barqaror bo'lib, turkumning to'liq musiqiy ijro jarayonida uning pardalarida ayrim o'zgarishlar ham sodir bo'lib turadi. Chunki shashmaqom shakllanishida maqomlar tarkibiga maqomdan mazkur maqom pardalariga yaqin kuy mavzusi tabiatga ohangdosh o'zga sho'ba va maqom yo'llari ham kiritilgan. Ularning lad tonalligi asosiy maqom yo'llariga ba'zan mos kelmasligi ham mumkin. Shashmaqomni tashkil etgan maqomlarning har bir ikki cholg'u (mushkilot) va ashula (nasr) yirik bo'limlaridan iborat. Cholg'u bo'limlaridan bir xil nom bilan ataluvchi cholg'u qismlari mayjud bo'lib, ohanglari o'zları mansub bo'lган maqom kuyiga xos, doira usullari esa bir xildir. Ulardan asosiyлari Tasrif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saql deb ataladi. Bu qismlar maqom nomlariga qo'shib (Muxammasi Nasrulloyi, Saqili Islimxon) deb ataladi. Ba'zi cholg'u qismlari alohida nomga ega (nag'mai orazi navo), Dugoh va Segohda esa maqom nomi bilan qo'shib aytiladi. (Peshravi Dugoh, Samoi Dugoh, Xafifi Segoh). Shashmaqomning cholg'u qismlari xona va bozgo'y kuy tuzilmalaridan tashkil topadi. Bunda muntazam ravishda o'zgaruvchi xonandalarning rivojlanishi uchun qo'llanadigan peshrav uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Tasrif, Tarje, Nag'mai, Oraz, samoi, Xafif kabi cholg'u qismlari bir biriga o'xshash, kichik hajmli; Gardun va Peshrav bir muncha rivojlangan. Muxammas va Saql yo'llari uzun va murakkab doira usullari negizida ijod etilgan. Shashmaqom cholg'u yo'llarinig ichki tuzilishi murakkab bo'lsada, o'zinig ravon ohangdorligi va rangbarangligi bilan shu maqom kuy mavzulari bilan bevosita bog'liqdir. Bu asarlar teran falsafiy va turfa lirik kyfiyatlarni ifodalaydi,

tinglovchilardan esa eshitish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etadi. Odatda shashmaqom cholg‘u qismlari birin ketin yaxlit tarzda ijro etilgandan so‘ng uning “Nasr” bo‘limiga o‘tiladi. Ashula qismlari ancha murakkab shakldagi sho‘balar guruhidan tashkil topgan. Birinchisiga saraxbor, Talqin, Nasr deb nomlanuvchi sho‘balar va yakuniy Ufar, ikkinchisiga esa, asosan Savt va Mo‘g‘ulcha nomli sho‘balar va ularning shoxobchalari kiradi. Shashmaqomdagi nomdosh sho‘balar (saraxbori Buzruk, Saraxbori Navo va boshqalar) ning kuy ohanglari turlicha bo‘lsada, doira usuli va kuylariga bog‘lab aytildigan she’r vaznlari bir xildir. Shashmaqom sho‘balarining rivojlanishidan avj va namudlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ashulaning yirik shakl olishi va mazmunan chuqurlashishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Namudlar maqom yo‘llarida yakka avj yoki guruh tartibida erkin ishlataladi. Otmishda namudlar soni(bir sho‘bada 4 tagacha) o‘zgarib turgan.

MAQOM TARIXI

Arabcha maqom(o‘rin, joy, tovush, parda daraja va hokazo, ko‘plik shakli maqomot) atamasi o‘tmishda turli ma’noda ishlatalib kelingan. Musiqa istilohida esa maqom – musiqa cholg‘ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o‘rni, ya’ni pardalardir. Maqom ma’lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalar majmuidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo‘llari turkumi ma’nosini ifodalab keldi. Kasbiy musiqaning yuksak namunalari bo‘lgan maqomlar aksariyat musulmon Sharq xalqlari mumtoz musiqa merosining salmoqli qismini tashkil etadi. Maqom san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Bu tarixni o‘zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon zamon nuqtai nazardan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy ohang qatlamlarini o‘rganish masalalari tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda hozirda ma’lum tom ma’nodagi maqomlar bo‘lmagan albatta. Chunki maqom tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-nazariy tarqqiyotning ma’lum bosqichi bilan shartlangan. Zotan tayanch manbalari juda qadim bo‘lgan maqomlar xalqlarning o‘ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan. Bunda saroy madaniyati ham zarur obyektiv omil sifatida muhim o‘rin tutgan edi. Shundayki dastlabki davrlarda xalq oarasidan yetishib chiqqan iste’dodli musiqachilar xon saroylariga (amaldorlarning xonadonlariga) musiqachi bo‘lib xizmat qilish uchun jalb etilganlar. Maqom qadim qadimdan juda katta tarixga egadir. O‘tmishda musiqa san’ati bilan maxsus shug‘illanib shu tarzda hayot kechiruvchi musiqachi (ijodkor xonanda, sozanda) lar yuzaga kelgan davrlardan boshlab kasbiy musiqa qatlami ham qaror topa boshlagan. Qadimgi davr musiqachilari “saroy estetikasi” ga muvofiq musiqa asrlarini ijod etishlarida xalq og‘zaki ijodida

to‘plangan badiiy va musiqa boyliklari asqotgan bo‘lishi tabiiydir. Bunda el orasida yoyilgan kuy va aytimlarni ijodiy qayta ishlagan holatda ularning yanada murakkab ko‘rinishlarini zuhur etishga intilgan bo‘lishlari mantiqiy mulohazalarga to‘g‘ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Ibrohimov Oqilxon Akbarovich “Maqom asoslari” Toshkent 2018
- 2.O‘zbekiston milliy ensiklapediyasi (2000 – 2005)
3. Ibrohimov. O “Maqomat va makon” Toshkent 1996
4. Matyoqubov. O. “Maqomat” Toshkent 2004